

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**“5310900-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati
menejmenti”, “5311000-Texnologik jarayonlar va ishlab
chiqarishni avtmoatlashtirish va boshqarish”
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlaridagi talabalar uchun
bitiruv malakaviy ishining iqtisodiy qismini
bajarish bo‘yicha**

USLUBIY KO‘RSATMALAR

TOSHKENT - 2016

“5310900-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti”, “5311000-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish” bakalavriat ta’lim yo’nalishlaridagi talabalar uchun bitiruv malakaviy ishining iqtisodiy qismini bajarish bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar. /Tuzuvchilar: Ziyaeva D.S., Ataxanova SH.S., Axmedov O.B., Mirxamidova D.N. – T.: ToshDTU, 2016.

Ushbu uslubiy ko’rsatmada - investitsiya va yillik amortizatsiya ajratmalari miqdorlarini, kadrlar sonini, yillik ish haqi fondini, materiallar sarfini, sanoat korxonasida ishlab chiqarish fondlarining samaradorligini va mehnat unumdorligi hisob – kitoblarini amalga oshirish bo’yicha ko’rsatmalar berilgan. Uslubiy ko’rsatmadan bakalavriaturaning “5310900-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti”, “5311000-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish” ta’lim yo’nalishlaridagi bitiruvchi talabalar bitiruv malakaviy ishining iqtisodiy qismini bajarishda foydalanadilar.

Ushbu uslubiy ko’rsatmalar ToshDTU o’quv-uslubiy Kengashining qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

- | | |
|-------------------|--|
| 1. Hoshimova S.N. | - ToshDTU “Iqtisodiyot va marketing” kafedrası dotsenti, i.f.n.; |
| 2. Mo’minov N.G. | - O‘zMU “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedra mudiri, dotsent |

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining milliy iqtisodiyoti ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan hamda umumiy iqtisodiy qonun va qonuniyatlar asosida rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda iqtisodiyotimiz bozor munosabatlari asosida rivojlanmoqda. Prezidentimizning beshta tamoyili asos qilib olingan bu model hozirda jahon mamlakatlari tomonidan ham tan olindi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining muhim subyekti korxona-iqtisodiyotning birlamchi bo'g'ini bo'lib, inson hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklarni ishlab chiqarishda bevosita qatnashadi.

Har bir korxona ishlab chiqarish omillaridan foydalanish, ularni iste'mol uchun tayyor mahsulot (ish, xizmat) holiga keltirish yo'li bilan mamlakat iqtisodiyotiga o'z hissasini qo'shadi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanish sharoitlarida mulkdorlar sinfining vujudga kelishi va korxonalarning yangi tashkiliy-huquqiy shakllarini tashkil qilish imkonini beruvchi huquqiy hujjatlar yaratildi.

Korxonalarning har biri boshqasidan o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Korxonaning muvaffaqiyati va iqtisodiy jihatdan baqarorligi samarali xojalik yuritishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi va barqaror o'sishida sanoat korxonalarining ijobiy faoliyati ahamiyatlidir. Chunki sanoat korxonalarining mahsulotlari milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari faoliyati uchun asosiy xomashyo bo'lib xizmat qiladi.

Bozor munosabatlari rivojlanayotgan sharoitda sanoat tarmoqlarida raqobatbardosh, import o'rnini bosa oladigan va ekspertga yo'naltirilgan sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish kabi masalalar dolzarbdir.

Ayniqsa, sanoatdagi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish yo'llarini shakllantirish, texnika yutuqlaridan va ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalanish hamda mehnat unumdorligini oshirish kabi masalalarga yechim topish uni keng ko'lamda rivojlantirishda katta omil hisoblanadi.

“5310900-Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti”, “5311000-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish” bakalavriat ta’lim yo’nalishlarining talabalari ushbu uslubiy ko’rsatma yordamida bitiruv malakaviy ishning iqtisodiy qismini bajarishda foydalanadilar.

Talabalar belgilangan bitiruv malakaviy ishning mavzusiga doir bajarilgan texnik yechimlarning iqtisodiy ko’rsatkichlarini hisoblash va mahsulot ishlab chiqarish tannarxining strukturasi tuzish, ularning salmog’ini hisoblash kabi vazifalarni ushbu ko’rsatma asosida bajaradilar.

Talabalar mahsulotni ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar smetasini tuzishda bajariladigan barcha hisob-kitoblarni jadvallar asosida hisoblaydilar. Uslubiy ko’rsatmada bitiruv malakaviy ishning iqtisodiy qismini bajarishda foydalaniladigan ayrim ma’lumotli materiallar ilova tarzda berildi.

Bitiruv ishining iqtisodiy qismida quyidagi hisoblashlar amalga oshiriladi:

1. Bitiruv ishi texnologik qismida qabul qilingan texnik vositalarni sotib olish, ish joyiga tashib keltirish va montaj qilish bilan bog’liq bo’lgan sarf-xarajatlar, ya’ni investitsiya va yillik amortizatsiya ajratmalari miqdorlari hisoblanadi.

2. Ishchi- xodimlar, muhandis-texnik xodimlar shtati hisoblanib, hisoblash natijalari asosida yillik ish haqi fondi aniqlanadi.

3. Xomashyo va yordamchi materiallar sarfi hisoblanadi.

4. Jarayonlarni bajarishda mashina va mexanizmlar sarflaydigan elektr energiya hamda yoqilg’i miqdori hisoblanadi.

5. Hisoblashlar natijalari asosida mahsulot tannarxi smetasi tuziladi.

6. Ishchi- xodimlarning mehnat unumdorligi va bitiruv ishining asosiy texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari aniqlanadi.

Bitiruv ishi yagona variantda bajarilgan bo’lsa, u holda iqtisodiy qismi yuqoridagi hisoblashlar bilan tugallanadi. Agar bitiruv ishi ikki yoki undan ortiq variantlarni o’zaro taqqoslash asosida bajarilgan bo’lsa,

u holda yuqoridagi ko'rsatkichlarga qo'shimcha qabul qilingan variantga sarflangan investitsiyaning qiyosiy iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi.

1. Investitsiya va yillik amortizasiya ajratmalari miqdorlarini hisoblash

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashadigan yoki uning amalga oshishi uchun sharoit yaratib beruvchi mehnat vositalariga ishlab chiqarish asosiy fondlari deyiladi.

Ishlab chiqarishda qatnashmaydigan mehnat vositalariga noishlab chiqarish asosiy fondlari deyiladi. Ularga binolar, zahiralarni saqlovchi omborxonalar, transport vositalari uchun obyektlar va boshqalar kiradi.

Asosiy fondlar – bu korxonada ishlab chiqarish vositalari bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etadi.

Asosiy vositalar o'z turlariga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Binolar. Asosiy, yordamchi jarayonlar amalga oshiriladigan binolar, ma'muriy binolar, xo'jalik qurilmalari. Xo'jalik qurilmalar qiymatiga isitish, suv, elektr sistemalari va ventilyatsiya qurilmalari qiymati va shunga o'xshash qurilmalar kiradi.

2. Inshootlar. Bu guruhni ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiruvchi muhandislik-qurilish ob'ektlari tashkil etib, unga asosan yo'llar, estakada, tunnel, ko'priklar kabi ob'ektlar kiradi.

3. Uzatish xo'jaliklari. Bunga turli energiya mashinadivigatellaridan ish mashinalariga uzatib beruvchi issiqlik tarmog'i, bug' yo'llari, suv yo'llari va elektr tarmoqlari kiradi.

4. Mashina va jihozlar:

- hamma turdagi energetik agregatlar va dvigatellarni o'z ichiga oluvchi kuch mashinalari va jihozlari;

- mehnat predmeti bevosita ta'sir etuvchi ishchi mashina va jihozlar;

- o'lchovchi va tartibga soluvchi, boshqaruvchi priborlar va qurilmalar, laboratoriya jihozlari;

- hisoblash texnikasi: elektron hisoblash-texnikasi, ishlab chiqarish texnologik jarayonini boshqaruvchi mashina va qurilmalar;

- keltirilgan ro'yxatda ko'rsatilmagan boshqa mashina va jihozlar.

5. Transport vositalari. Korxonaga tegishli bo'lgan temir yo'l tarkibi, suv va avtomobil transporti vositalari: avtokranlar, aravacha va boshqalar.

6. Asbob va uskunalar. Hamma turdagi asboblalar.

7. Ishlab chiqarish inventarlari. Materiallarni, asbob-uskunalarini saqlash uchun mo'ljallangan verstaklar, stollar, konteynerlar va boshqalar.

Asosiy fondlarni saqlash va ulardan foydalanish samaradorlik darajasini nazorat qilish uchun sanoat korxonalariga tegishli barcha asosiy fondlarni pul va natural formada hisobga olish, sexlar va korxonalar bo'yicha ishlab chiqarish dasturini tuzish va ularning ish natijalarini tahlil qilish uchun zarurdir. Asosiy fondlarning pul shakli ularning umumiy qiymatini aniqlash, amortizatsiya ajratmalar miqdorini va qayta tiklash uchun kerakli mablag'larni aniqlash uchun kerak.

Asosiy fondlarning pul hisobidagi qiymati asosiy mablag'lar deb yuritiladi. Asosiy fondlarning uzoq vaqtgacha asta-sekin yemirilib xizmat qilishi ma'lum. Bu vaqt davomida asosiy fondlarni takror ishlab chiqarish sharoitlari ham o'zgaradi. Bu hol asosiy fondlarni pul bilan baholash zaruratini keltirib chiqaradi.

Asosiy fondlarning balans qiymati – uni sotib olish, transport va o'rnatishga ketgan harajatlar summasidir. tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib boriladi.

Amortizatsiya jarayoni - asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulot qiymatiga o'tkazish jarayonidir.

Amortizatsiya ajratmalari deb amortizatsiya jarayon natijasida to'plangan mablag'larga aytiladi.

Ishlab chiqarishdagi asosiy fondlarning balans qiymati quyidagi jadval asosida hisoblanadi. (1-jadval)

1-jadval

Asosiy fondlarning balans qiymatini hisobi

№	Mashina, mexanizm va uskunalarning nomi	Soni, dona	Asosiy fondning ulgurji narxi, ming so'm	Transport va o'rnatishga ketgan harajatlar (15 %), ming so'm	Asosiy fondning balans narxi, ming so'm	Asosiy fondlarning umumiy balans narxi, ming so'm
1.						
2.						
...						
...						
...						
n						
	Jami					

Asosiy fondlarning balans qiymatini hisobi 1-jadvalda keltirilgan:

- 1. Transport va o'rnatishga ketgan harajatlar = Asosiy fondning ulgurji narxi * 15% / 100 %, ming so'm.*
- 2. Asosiy fondning balans narxi = Bir-birligining ulgurji narxi + Transport va o'rnatishga ketgan harajatlar, ming so'm.*
- 3. Barcha asosiy fondlarning umumiy balans narxi = Asosiy fondning balans narxi * Asosiy fondlarning soni, ming so'm.*

Amortizatsiya ajratmalari quyidagi 2-jadval asosida hisoblanadi. (2-jadval)

2- jadval

Yillik amortizatsiya ajratmalarining hisobi

№	Mashina, mexanizm va uskunalar nomi	Hammasi-ning umumiy narxi, ming so‘m	Amortizatsiya me‘yori, %	Yillik amortizatsiya miqdori, ming so‘m
1.				
2.				
...				
...				
...				
n				
	Jami			

*1. Amortizatsiya me‘yori = 1/Asosiy fondning xizmat muddati * 100, %.*

*2. Yillik amortizatsiya miqdori = Asosiy fondlarning umumiy balans narxi * Amortizatsiya me‘yori/100 %, ming so‘m.*

2. Kadrlar sonining hisobi

Kadrlar (xodimlar) – bu muayyan kasbni egallash bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan, amaliy tajriba va mehnat ko‘nikmasiga ega bo‘lgan, ishlab chiqarish sohasida ish bilan band bo‘lgan kishilardir.

Iqtisodiyot tarmoqlarida kadrlarga bo'lgan talabni aniqlash va ulardan oqilona foydalanish, kadrlarning mehnati bo'yicha rejalashtirish va hisobga olish zarur.

Sanoat korxonalarida band bo'lgan kadrlar ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatida qatnashishiga qarab ikki guruhga bo'linadi, ya'ni:

1-guruh. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari.

2-guruh. Nosanoat ishlab chiqarish xodimlari.

1-guruhga mahsulot ishlab chiqarish doirasida band bo'lgan xodimlar kiradi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari o'z navbatida bajaradigan funksiyasining tavsifiga qarab quyidagi kategoriyalarga bo'linadi:

1. Ishchi xodimlar.

Ishchi xodimlar – mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da, jihozlarni ta'mirlashda, mehnat buyumlari va tayyor mahsulotni bir yerdan ikkinchi joyga tashishda va ta'mirlash ishlarida bevosita qatnashadilar.

2. Muhandis-texnik yoki boshqaruv xodimlar.

Muhandis-texnik yoki boshqaruv xodimlar kategoriyasiga boshqaruvchi, ularning muovnlari, ishlab chiqarish uchastkasining boshlig'i, bosh mutaxassislar, xizmat ko'rsatish bo'limlarining rahbarlari kiradi.

3. Xizmatchilar.

Xizmatchilar kategoriyasiga – hujjatlarni tayyorlovchi, ularni rasmiylashtiruvchi, hisob va nazorat ishlarini bajaruvchi, xo'jalik xizmatini bajaruvchi (agentlar, kassirlar, ish yurituvchilar, kotibalar, statistlar)lar kiradi.

4. Korxonani qo'riqlaydigan va yong'indan muhofaza qiluvchi xodimlar. Bu kategoriyaga – qorovullar va o't o'chiruvchilar kiradi.

Korxonada kadrlar strukturasi turli omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi. Sanoat korxonalarida asosiy ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, mahsulot ishlab chiqarishni murakkablashganligi natijasida asosiy ishchilarning ulushi kamaya

borib, mutaxassislar soni oshib boradi. Korxona ishlab chiqarish personali jinsi, yoshi, ma'lumoti, ish staji bo'yicha taqsimlanib, tahlil qilinadi. Korxona faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilishda, ayniqsa, mehnat unumdorligi, o'rtacha ish haqi, kadrlar aylanishi va oqimini hisoblashda **o'rtacha ro'yxat soni** ko'rsatkichi qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichni to'g'ri aniqlash uchun xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa ishga o'tkazish va mehnat shartnomasini bekor qilishni inobatga olgan holda har kuni hisobga olib borishni yo'lga qo'yish zarur.

Kadrlarning korxonada harakatlanishini tavsiflash uchun kadrlar oqimi koeffitsienti ko'rsatkichidan foydalaniladi.

Kadrlar oqimi koeffitsienti (K_{oq}) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{oq} = X_{x.b.} / X_{o'r.}$$

bunda:

$X_{x.b.}$ – o'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik uchun ishdan bo'shagan xodimlar soni;

$X_{o'r.}$ – personalning o'rtacha ro'yxat soni.

Sanoat korxonalari ishini samarali tashkil etish kasbiy malaka tuzilishi va ishchilar sonining muvofiqligi bilan tasniflanadi. Turli kategoriyadagi ishchilar soni bajaradigan ishi, uskunaga xizmat ko'rsatishi me'yori orqali aniqlanadi.

Korxona personalini miqdor jihatidan tasniflashda umumiy, ro'yxatdagi, ishga kelgan va shtatdagi ishchilar soni ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Ishlab chiqaruvchi va noishlab chiqaruvchi ishchilar soni yig'indisini ishchilarning umumiy ro'yxatdagi soni deyiladi.

$$A_{um} = A_{i.ch.} + A_{n.i.ch.}$$

bunda:

$A_{i.ch.}$ - ishlab chiqaruvchi ishchilar soni;

$A_{n.i.ch.}$ - noishlab chiqaruvchi ishchilar soni.

Sanoat korxonalarida ishchilar tarkibini quyidagicha 2 ta tarkibga ajratish mumkin:

1. Ishga chiqish tarkibi. Bu tarkibni bir sutka davomida bevosita ish joylarida ishlaydigan ishchilar soni tashkil etadi. Sanoat

korxonalarida ishlab chiqarish tarkibi bo'yicha ishchilar soni quyidagi ikki usulda aniqlanadi.

1.1. *Mehnat me'yori bo'yicha hisoblash usuli.* Bu usulda ishbay ish haqi oladigan ishchilar soni quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{i.ch.t.} = h * n * n_{sm}, \quad kishi/sutka$$

h - bitta ish joyiga xizmat ko'rsatish uchun belgilangan xizmat ko'rsatish me'yori, kishi/smena

n - ish joylarining soni.

n_{sm} - bir sutkadagi ishlab chiqarish smenalari soni, smena.

1.2. *Ishchilarni joy-joyiga xizmat ko'rsatish me'yori bo'yicha taqsimlash usuli.* Mexanizatsiyalashgan qazish ish joyida mexanizmlar ish joyida mexanizmlar ishini nazorat qilib turish uchun me'yor bo'yicha smena davomida 2 ta elektroslesar navbatchilik qilishi kerak. Demak, agar sutkada uch ish smenasi bo'lsa, u holda ishga chiquvchi slesarlarning soni 6 ta bo'ladi.

2. Ro'yxat tarkibi. Bu tarkibni ro'yxat bo'yicha ishga qabul qilingan ishchilar soni tashkil etib, ushbu ishchilar soni ishga chiqish tarkibidagi ishchilar sonidan ro'yxat ko'effitsiyenti miqdoricha ko'p bo'ladi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{ro'y} = N_{i.ch.t.} * K_{ro'y}, \quad kishi/sutka$$

3. Ishlarning ro'yxat ko'effitsienti quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$K_{ro'y} = IK_{korx} / IK_{ishchi}$$

3. Yillik ish haqi fondini hisoblash

Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishida mehnatga haq to'lashni tartibga solish maqsadida yagona tarif stavkasi (YaTS) ishlab chiqilgan va joriy etildi. Ushbu tarif stavkasi asosida xodimlar

mehnatiga haq to'lash ularning ish tajribasi va malakasini inobatga olgan holda haq to'lash darajalarini tabaqalashtirish va bir xil murakkablikdagi ish uchun barobar haq to'lash imkonini beradi.

Mehnatga haq to'lashni davlat tomonidan tartibga solingan, oz ish haqi oladigan xodimlarning ijtimoiy himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar asosida ish haqining eng kam miqdorini belgilaydi.

Sanoat korxonalarida asosiy ish haqi yagona tarif setkasi asosida shakllantiriladi. Yagona tarif setkasi ustuvor bo'lib, undan foydalanganda xodimlar ish haqini yanada obyektivroq tabaqalashtirishga erishiladi.

Ish haqini tashkil etish iqtisodiy samaradorlikning mezoni sifatida xo'jalik hisobi daromadining ish haqi fondiga nisbatan ustuvor o'sishi hisoblanadi. Bunday ustuvor o'sish ta'min etilmagan hollarda sabablarni sinchiklab tahlil qilish, foydani ko'paytirishga qaratilgan yoki mehnatga to'lanadigan xarajatlarni qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha tadbirlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Ish haqining shakllari va tizimlari – bu mehnatning miqdor natijalari va sifatiga (uning murakkabligi, intensivligi, shart-sharoitlariga) bog'liq ravishda ish haqini belgilash mexanizmidir.

Tarif tizimi turli me'yoriy materiallar majmuidan iborat bo'lib, ular yordamida korxonadagi xodimlar ish haqi darajasi, ularning malakasi, ishlarning murakkabligi, mehnat sharoitlari, korxonalarning jo'g'rofik joyi va boshqa tarmoq xususiyatlariga qarab belgilanadi. Tarif tizimining asosiy elementlariga tarif setkalari, tarif stavkalari, lavozim maoshlari, tarif stavkalariga ustama va qo'shimcha haqlar, tarmoq koeffitsiyentlari kiradi.

Tarif stavkalari – razryadlar shkalasidan iborat bo'lib, ularning har biriga o'z ta'rif koeffitsiyenti berilgan va har qanday razryadning tarif stavkasi birinchi razryaddan necha marta ko'pligini ko'rsatib turadi. Razryadlar miqdori va ularga tegishli tarif koeffitsiyentlarining miqdori korxonalarda tuziladigan jamoa shartnomasida belgilanadi. Jamoa shartnomasi tarif bitimi asosida ishlab chiqiladi va xodimlar ahvolidan shartnoma shartlariga nisbatan yomonlashuvini nazarda tutmaslik lozim.

Tarif stavkasi – ish vaqti birligi hisobiga mehnatga haq to‘lashning pul bilan ifodalangan mutloq miqdoridir.

Hozirgi vaqtda iqtisodiyot sohasida qo‘llanilayotgan ta’rif setkasi 1-ilovada keltirilgan. Tarif stavkasining 1-razryadining koeffitsiyenti 1ga teng bo‘lib, ta’rif stavkasi asosida ish haqi eng kam ish haqiga tengdir. Shundan keyingi har bir razryadning ta’rif stavkasi belgilangan ta’rif koeffitsiyentini eng kam ish haqiga ko‘paytirish asosida hisoblab chiqiladi.

Korxona xodimga mehnat shartnomasi asosida ish haqi belgilaydi. Shuningdek, ish haqi belgilashda xodimning moliyaviy imkoniyatlari va tarmoq bitimida aks ettirilgan mehnatga haq to‘lash shartlariga ham bog‘liq bo‘ladi.

Bunda respublikamizda belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan kam bo‘lmasligi lozim. Ta’rif stavkasi ishchilar mehnatiga haq to‘lash darajasini belgilash uchun boshlang‘ich miqdor hisoblanadi.

Tanlangan vaqt birligiga qarab ta’rif stavkalari soatbay, kunbay va oylik maoshlardan iborat bo‘ladi. Amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladigan tarif stavkalari soatbay bo‘lib, ular asosida turli qo‘shimcha haqlar hisoblab chiqiladi. Kundalik va oylik stavkalar soatbay stavkalarni ish smenasidagi soatlar soniga va oy mobaynidagi ishlangan o‘rtacha oylik soatlar soniga ko‘paytirish yo‘li bilan hisoblab chiqiladi.

Bitiruv malakaviy ishning iqtisodiy qismidagi ishchi va xizmatchilarning yillik ish haqi fondining hisobi quyidagi 3-jadval asosida hisoblanadi.

1. *YaTS bo‘yicha tarif stavkasi = Tarif koeffitsiyenti * Tarmoq koeffitsiyenti * minimal ish haqi, so‘m.*
2. *Qo‘shimcha ish haqi= YaTS bo‘yicha ta’rif stavkasi * 20% / 100 %, so‘m.*
3. *Ishchinining 1 smenalik ish haqi = YaTS bo‘yicha ta’rif stavkasi + Qo‘shimcha ish haqi, so‘m.*
4. *Umumiy smenalik ish haqi = Ishchinining 1 smenalik ish haqi * Ishchilarni ishga chiqish tarkibi, ming so‘m.*

5. *Sutkalik ish haqi = Umumiy smenalik ish haqi * Sutkada smenalar soni, ming so‘m.*
6. *Yillik ish haqi fondi= Sutkalik ish haqi*Ishchining yillik ish kunlari, ming so‘m.*

3-jadval

Ishchilarning yillik ish haqi fondining hisobi

№	Kasb nomi	YaTS bo'yicha razryad	Razryad koeffitsiyenti	Tarmoq koeffitsiyenti	Minimal ish haqi bo'yicha tarif stavkasi, so'm	YaTS bo'yicha ta'rif stavkasi, so'm	Qo'shimcha ish haqi (ta'rif stavkasidan 20 %), so'm	Ishchining 1 smenalik ish haqi, ming so'm	Ishchilarni ishga chiqish tarkibi, kishi/smena	Umumiy smenalik ish haqi, ming so'm	Sutkada smenalar soni	Sutkalik ish haqi, ming so'm	Ishchilarning yillik ish kunlari, kun hisobida	Yillik ish haqi fondi, ming so'm
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1.														
2.														
3.														
...														
...														
n														
	Jami:													
	Nazarda tutilmagan ish haqi:													
	Hammasi:													

**Boshqaruv xodimlarining shtati va yillik ish haqi
fondining hisobi**

№	Lavozim nomi	Shtatlar soni	YaTS bo'yicha razryad	Razryad koeffitsiyenti	Tarmoq koeffitsiyenti	Minimal ish haqi bo'yicha ta'rif stavkasi, sum	YaTS bo'yicha ta'rif stavkasi, so'm	Qo'shimcha ish haqi (ta'rif stavkasidan 40 %), so'm	Umumiy oylik ish haqi, ming so'm	Yillik ish haqi fondi, ming so'm
1.										
2.										
...										
...										
...										
n										
	Jami:									

Boshqaruv xodimlarining shtati va yillik ish haqi fondining hisobi
4-jadval asosida quyidagicha hisoblanadi:

- YaTS bo'yicha ta'rif stavkasi = Ta'rif koeffitsiyenti * Tarmoq koeffitsiyenti * Minimal ish haqi, so'm.*
- Qo'shimcha ish haqi= YaTS bo'yicha ta'rif stavkasi * 40% / 100 %, so'm.*

3. *Umumiy oylik ish haqi = YaTS bo'yicha ta'rif stavkasi + Qo'shimcha ish haqi, ming so'm.*
4. *Yillik ish haqi fondi = Umumiy oylik ish haqi * Shtatlar soni * 12 oy, ming so'm.*

5. Materiallar sarfini hisoblash

Sanoat korxonalari asosiy fondlar bilan bir qatorda aylanma fondlarga ham egadir. Aylanma fondlar tayyor mahsulotning moddiy asosini tashkil qiladi yoki ishlab chiqarish jarayonining borishiga yordam beradi.

Korxona faoliyati normal shakllanishi uchun yetarli darajada aylanma mablag'larga ega bo'lish kerak.

Mahsulot ishlab chiqarishning moddiy asosini tashkil qiladigan aylanma fondlar korxonalarda xomashyo yoki yordamchi materiallar jamg'armalari shaklida tashkil topadilar. Keyinchalik ular ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilib, tayyor mahsulotga aylanadilar, yoki mahsulot ishlab chiqarishga yordam beradilar, ya'ni ishlab chiqarish jarayonidan muomala jarayoniga va aksincha, muomala jarayonidan ishlab chiqarish jarayoniga o'tib turadilar. Shuning uchun aylanma fondlar ishlab chiqarish va muomala jarayonida qatnashuvchi ikki qismga bo'linadilar.

Aylanma ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish fondlarining ma'lum bir qismini tashkil etib, ishlab chiqarish jabhasida harakat qiladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etib, o'zining natural shaklini va fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'zgartiradi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotga o'z qiymatini to'liq o'tkazadi.

Demak, **sanoatning aylanma fondlari** deb har bir ishlab chiqarish jarayonida to'la ishlatilib, o'z qiymatini tayyor mahsulotga bir yo'la o'tkazadigan va o'zlarining moddiy shakllarini butunlay o'zgartiradigan mehnat buyumlariga aytiladi, ular ishlab chiqarish uzluksizligi va bir maromiyligini ta'minlaydi.

Aylanma fondlar hisobga olish va rejalashtirish maqsadida uch guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish zahiralari - ishlab chiqarish jarayonlari uchun tayyorlangan mehnat buyumlari bo'lib, bo'lar tarkibiga :

- xomashyo va asosiy materiallar;
- yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar;
- yordamchi materiallar;
- yoqilg'i;
- asosiy fondlarni joriy ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar;
- ishlab chiqarish va xo'jalik inventari.

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish - ma'lum sexda mahsulotga to'la aylanmagan, ishlab chiqarish jarayonidagi yoki texnik nazoratdagi mahsulot.

Ishlab chiqarish zaxiralari va tugallanmagan ishlab chiqarish ishlab chiqarish fondlarining moddiy asosini tashkil etadi.

3. Kelgusi davr xarajatlari - aylanma fondlarning elementi bo'lib, nomoddiy shaklga ega bo'lgan ishlab chiqarishni tayyorlash, yangi mahsulotni o'zlashtirish xarajatlari bo'lishi mumkin.

Aylanma fondlar natural va qiymat ko'rinishida hisobga olinadi. Aylanma fondlarning moddiy buyum elementlarini tejash mahsulotning material sig'imini tejab, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Materiallar sarfini hisoblash uchun bitiruv malakaviy ishdagi mavzuga doir ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan materiallarning nomlari bo'yicha ro'yxati va ularning har birini ishlatish me'yorlari aniqlanadi. Shundan so'ng, ularni bir yil ichida sarflanadigan miqdori natural va pul birliklarida hisoblanadi va bu hisob-kitob quyidagi 5-jadval ko'rinishida amalga oshiriladi:

1. $\text{Yillik material sarfi} = \text{Ish birligiga sarflanadigan me'yor} * \text{Yillik ish hajmi, dona/tonna}$
2. $\text{Yillik material sarfi} = \text{Yillik material sarfi} * \text{Material birligining narxi, ming so'm}$

5. Yoqilg'i va moylash sarfini hisoblash

Korxonada foydali qazilma avtomobil transporti bilan tashilganda yoqilg'i sarfini hisoblash kerak. Ushbu sarf hisobi quyidagi 6-jadval asosida hisoblanadi.

5-jadval

Materiallar sarfining hisobi

№	Materiallar nomi	O'lcham birligi	Ish birligiga sarflanadigan me'yor	Yillik ish hajmi, tonna yoki kub metr	Yillik material sarfi	Material birligining narxi, ming so'm	Yillik material sarfi, ming so'm
1.	Ishchilar uchun mahsus kiyim	dona					
2.	Ehtiyot qismlari	Mashina va mexanizm uskunalarining balans narxidan 3,5 % hisoblanadi					
...							
...							
n							
	Jami						
	Nazarda tutilmagan materiallar sarfi	Jami xarajatlar hisobiga nisbatan 5 %dan – 10 % gacha hisoblanadi					
	Hammasi:						

- Sutkada reys soni = Sutkada ish vaqti * 1 ta reys vaqti*
- Sutkada yoqilg'i sarfi = Sutkada reys soni * 1 reysda bosib o'tiladigan yo'l * 1 km uchun yoqilg'i sarfi, litr*sutka*

3. $Yoqilg'ining\ yillik\ sarfi = Sutmada\ yoqilg'i\ sarfi * 1\ l\ yoqilg'i\ narxi * Yillik\ ish\ kunlari, ming\ so'm$

4. $Moylash\ materiallari = Yoqilg'ining\ yillik\ sarfi * 0,01, ming\ so'm$

5. $Moylash\ sarfi = Yoqilg'ining\ yillik\ sarfi * 0,04, ming\ so'm$

6-jadval

Yoqilg'i va moylash sarfining hisobi

№	Xarajat nomi	O'lcham birligi	Sutmada ish vaqti, min	1 ta reys vaqti, min	Sutmada reys soni	1 reysda bosib o'tiladigan yo'l, km	1 km uchun yoqilg'i sarfi, l	Sutmada yoqilg'i sarfi, l	1 l yoqilg'i narxi, so'm	Yillik ish kunlari, kun	Yoqilg'i ning yillik sarfi, ming so'm
1.	Yoqilg'i										
2.	Moylash materiallari	moylash materiallari yoqilg'i sarfining 1%ini tashkil qiladi									
3.	Moylash sarfi	moylash sarfi yoqilg'i sarfining 4%ini tashkil qiladi									
..											
..											
n											
	Ja'mi										
	Nazarda tutilmagan sarf-xarajatlar	Jami xarajatlar hisobiga nisbatan 5 %dan – 10 % gacha hisoblanadi									
	Hammasi:										

6. Jarayonlarni bajarishda mashina va mexanizmlar sarflaydigan elektr energiya miqdorini aniqlash

Sarflanadigan elektr energiyasi miqdorini kvт.s va pul birliklarda hisoblanadi. Bunda faqat energiya iste'molchilari sarflangan elektr energiyasi yakka tarif asosida hisoblanadi. Chunki, sanoat korxonalarida elektr energiya iste'molchilarining har biri kVt quvvatiga to'lanadigan haq alohida jarayonlar uchun sarflangan elektr energiyasining pul birligida miqdoriga kiritilmaydi. Sarflangan elektr energiyasi miqdori va qiymatini turli usulda amaliy ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi. Ayrim bitiruv malakaviy ishlarda elektr energiya iste'molchilarining sarflanadigan elektr energiya sarfi hisoblanadi va bunday hollarda iqtisodiy qismda faqat elektr energiya sarfini pul birliklarida hisoblab chiqiladi.

7.1. Elektr energiyasi sarfi quyidagi 7-jadval asosida hisoblanadi.

*Umumiy quvvat = Bitta iste'molchining iste'mol quvvati * Iste'molchilar soni, kVt soat.*

- 1. Sutkalik elektr energiya sarfi = Sutkada ishlaydigan vaqti * Umumiy quvvat/1000, kVt*soat.*
- 2. Sutkalik elektr energiya sarfi uchun to'lanadigan haq = Sutkalik elektr energiya sarfi * 1 kvт.soat uchun to'lanadigan haq, ming so'm.*
- 3. Yillik elektr energiya sarfi = Sutkada sarflanadigan energiya sarfi uchun to'lanadigan haq * Korxonaning yillik ish kunlari, ming so'm.*

7.2. Korxonada ayrim hollarda elektr energiya sarfi ikki tarifli to'lov asosida hisoblanadi. Bu ta'rif to'lovi 1 kVt elektr energiyaning maksimal yuklamasi bo'yicha to'lanadi. Bundan tashqari, elektr energiyaning sarflangan har bir miqdori bo'yicha ham to'laydi.

1 kVt elektr energiyaning ikki ta'rifli to'lov quyidagi ifoda asosida hisoblanadi:

$$1. Ti.t.t. = ((N * T_{as.} + E_{yil} * T_{qo'sh.}) / E_{yil}) / (1 \pm f)$$

bunda:

N - elektr energiyaning maksimal yuklamasi;

T_{as} - 1 kVt elektr energiyaning maksimal yuklamasi bo'yicha to'lov, so'm;

E_{yil} – yillik elektr energiya sarfi, kVt*soat;

$T_{qo'sh}$ – hisoblagich bo'yicha elektr energiyaning sarflangan har bir miqdoriga to'lanadigan qo'shimcha to'lov;

$f - \cos \varphi$ miqdori bo'yicha chegirma (jarima).

7-jadval

Yillik elektr energiya sarfini hisobi

No	Elektr energiya iste'molchilarining nomi	Bitta iste'molchining iste'mol quvvati, kVt soat	Iste'molchilar soni, dona	Umumiy quvvat, kVt soat	Sutkada ishlaydigan vaqti, soat	Sutkalik elektr energiya sarfi, ming kVt soat	1 kvt.soat uchun to'lanadigan haq, so'm	Sutkalik elektr energiya sarfi uchun to'lanadigan haq, ming so'm	Korxonaning yillik ish kunlari, kun	Yillik elektr energiya sarfi, ming so'm
1.										
2.										
...										
...										
n										
	Jami:									
	Nazarda tutilmagan energiya sarfi	Jami xarajatlar hisobiga nisbatan 3 %gacha hisoblanadi								
	Hammasi:									

6. Siqilgan havo sarfini hisoblash

Bitiruv malakaviy ishida burg'ilab-portlatish jarayonlarida perferatorlardan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lsa, ularning siqilgan havodan foydalanishi quyidagi 8-jadval orqali hisoblanadi.

1. *Umumiy siqilgan havo sarfi = Bitta iste'molchining siqilgan havo sarfi * Iste'molchilar soni, m.kub.*
2. *Sutkalik siqilgan havo sarfi = Sutkada ishlaydigan vaqti * Umumiy siqilgan havo sarfi, ming m.kub.*

8-jadval

Siqilgan havo sarfining hisobi

№	Siqilgan havo iste'molchilari-ning nomi	Bitta iste'molchining siqilgan havo sarfi, m.kub	Iste'molchilar soni, dona	Umumiy siqilgan havo sarfi, m.kub	Sutkada ishlaydigan vaqti, soat	Sutkalik siqilgan havo sarfi, ming metr kub	1 m.kub uchun to'lanadigan haq, so'm	Sutkalik siqilgan havo sarfi uchun to'lanadigan haq, ming so'm	Korxonaning yillik ish kunlari, kun	Yillik siqilgan havo sarfi, ming so'm
1.										
2.										
...										
...										
...										
n										
	Jami:									

	Nazarda tutilmagan sarf hisobi	Jami xarajatlar hisobiga nisbatan 2%gacha hisoblanadi	
	Hammasi:		

3. *Sutkalik siqilgan havo sarfi uchun to'lanadigan haq = Sutkalik siqilgan havo sarfi * 1 m.kub uchun to'lanadigan haq, ming so'm.*

4. *Yillik siqilgan havo sarfi = Sutkalik siqilgan havo sarfi uchun to'lanadigan haq * Korxonaning yillik ish kunlari, ming so'm.*

8. Bitiruv malakaviy ishning mavzusi boyicha bajarilgan texnik yechimning sarf-xarajatlar umumiy hisobini va 1 t mahsulot tannarxining smetasini tuzish

Ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Mahsulot tannarxi – mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlarning puldagi ifodasidir.

Mahsulot tannarxini quyidagi xarajatlar tashkil etadi:

1. Ishlab chiqarishga sarflangan ish haqi.

Mazkur xarajatlar elementlari quyidagilardir:

- amalda bajarilgan ish uchun to'langan ish haqi;
- mukofot va boshqa to'lovlar;
- qonunchilikka asosan xodimlarga bepul beriluvchi kiyim-kechak, oziq-ovqat, uy-joy, kommunal xizmat va hokazolar qiymati;
- har yillik mehnat va o'quv ta'tili uchun amalga oshiriluvchi to'lovlar;
- korxonani qayta tashkil qilish, shtatlar qisqarishi tufayli ishdan bo'shatilgan xodimlarga to'lanuvchi mablag'lar.

2. Ishlab chiqarishga doir to'lanadigan ijtimoiy to'lovlar.

Ijtimoiy ehtiyojlar uchun xarajatlar nobudjet ijtimoiy fondlariga (nafaqa fondi, ijtimoiy sug'urta fondi, bandlik fondi va hokazo) ajratiluvchi mablag'larni anglatadi. Ushbu hisobda biz ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmani hisoblaymiz.

4. Amortizatsiya ajratmasi.

Asosiy fondlarning umumiy balans qiymatidan amortizatsiya me'yori bo'yicha hisoblanadigan ajratmalar.

4. Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari.

- xom–ashyo va materiallar xarajatlari;
- mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanuvchi yoqilg'i va energiya sarfi;
- ishlab chiqarishda foydalaniladigan butlovchi qismlar va yarim tayyor mahsulotlar;
- ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar;
- tez eskiruvchi asbob, asbob–uskuna, ashyo, laboratoriya uskunalari va maxsus kiyim uchun sarflanadigan xarajatlar;
- tabiiy xomashyodan foydalanish bilan bog'liq soliq, yig'im va boshqa to'lovlar;
- ishlab chiqarishda bekor turib qolish va sifatsizlik (brak) tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar;
- tabiiy ofat tufayli yuzaga keladigan yo'qotishlar.

Yuqorida keltirilgan hisob-kitoblar bajarilgandan so'ng ishlab chiqarish jarayonini bajarishga sarflangan barcha joriy harajatlar jamlandi va tannarx smetasi (kalkulyatsiyasi) tuziladi. Ushbu smeta 9-jadval orqali tuziladi.

- 1. Ish mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajat = Yillik xarajat miqdori/Yillik ish hajmi yoki mahsulot miqdori, so'm.*
- 2. Xarajatlarning tannarxdagi ulushi = Ish mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajat*100%/ Jami xarajatning summasi, %*

Mahsulot tannarxining smetasi

№	Xarajatlarning nomi	Yillik xarajat miqdori, ming so'm	Yillik ish hajmi yoki mahsulot miqdori, ming m.kub yoki ming tonna	Ish yoki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan xarajat, so'm	Xarajatlarning tannarxidagi ulushi, %
1	2	3	4	5	6
1.	Yillik ish haqining fondi				
2.	Ijtimoiy sug'urta ajratmasi, (ish haqidan 25 %)				
3.	Yillik amortizatsiya ajratmalari				
4.	<i>Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari</i>				
4.1.	Materiallar sarfi				
4.2.	Yillik elektr energiya sarfi				
4.3.	Siqilgan havo sarfi				
5.	Ta'mirlash va joriy xarajatlari				
	Jami:				

9. Sanoat korxonasida ishlab chiqarish fondlari samaradorligining va mehnat unumdorligining hisobi

1. Fond samaradorlik (F_s) ko'rsatkichi – tayyor mahsulotning bir so'miga to'g'ri keladigan asosiy fondlarning yillik qiymatini ko'rsatadi va quyidagicha aniqlanadi:

$$F_s = M / N_{o.q.}, \text{ so'm / so'm}$$

bunda:

M — yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, so'm;

$N_{o.q.}$ — asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati, so'm.

2. Fond sig'imi ($F_{sig.}$) – asosiy fondlarning yillik qiymatiga to'g'ri keladigan tayyor mahsulotning yillik hajmini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich fond samaradorligiga teskari ko'rsatkich bo'lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{sig.} = N_{o.q.} / M \text{ so'm / so'm}$$

3. Mehnat unumdorligi - xodimning ish vaqt birligi davomida (soat, smena, yil) ishlab chiqargan mahsulotlar miqdori (M_{miq}) yoki mahsulot birligini ishlab chiqarishga ketgan vaqt miqdori (T_{max}).

Mehnat unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{max} = T_{ish} / M_{miq} \text{ yoki } MU = M_{miq} / T_{ish}$$

Mehnat unumdorligini quyidagi usullar orqali aniqlash mumkin:

1. Natural usulda har bir ishchining ishlab chiqargan mahsulotining miqdori natural o'lchov (dona) bilan aniqlanadi.

2. Mehnat usulida ma'lum vaqt birligi ichida mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan ish vaqti sarfi aniqlanadi va kishi-soat o'lchovida o'lchanadi.

10. Variantlarning o'zaro qiyosiy samaradorligini aniqlash

Samaradorlik xo'jasizlik, isrofgarchilik va boshqa talofatlarni bartaraf etuvchi ko'rsatkichdir. Biroq samaradorlik o'z-o'zidan avtomatik ravishda kelmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish

quvvatlari va resurslardan oqilona foydalanish, tejamkorlikka rioya qilish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va oqilona investitsion siyosat samaradorlikni oshirishning muhim omili va yoʻnalishi boʻlib xizmat qiladi.

Samaradorlikning asosi xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishdadir. Korxona xoʻjalik yuritishining samaradorligini tavsiflovchi asosiy koʻrsatkichlar sifatida mehnat mahsuldorligi, fond qaytimi va fond sigʻimi, material sigʻimi, mehnat sigʻimi, rentabellik va hokazolarni koʻrsatish mumkin. Korxonaning barqarorligi yoki nochorligi uning samarali yoki samarasiz faoliyat yuritishini mos ravishda aks ettiradi. Bu jihatdan bugungi xoʻjalik yuritish amaliyoti toʻlov qobiliyati koeffitsiyenti, xususiy va qarzga olingan aylanma mablagʻlar nisbati koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti va xususiy aylanma vositalar bilan taʼminlanganlik koeffitsiyenti kabi koʻrsatkichlar tizimidan foydalanadi. Turli korxonalarda xoʻjalik yuritish samaradorligiga oʻz imkoniyatlari va yuzaga keluvchi iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda turli usullar yordamida erishiladi. Samaradorlikka erishishning hamma uchun toʻgʻri keluvchi yagona yoʻli mavjud emas. Korxonaning vazifasi barcha faoliyat turlarida samaradorlikka erishish yoʻllarini qidirishdir.

Bitiruv malakaviy ishda ikki yoki undan ortiq variantlar taqqoslangan boʻlsa, ularning har biriga sarflangan kapital mablagʻlarning qiyosiy samaradorligini keltirgan xarajatlar (kapital xarajatlar) bilan joriy variantning keltirilgan xarajatlari aniqlanadi:

$$T_1 + E_H * K_1$$

$$T_2 + E_H * K_2$$

$$T_N + E_N * K_N$$

Bu koʻrsatkichlar kapital qoʻyilma samaradorligini aniqlash mezon boʻlib, ular aniqlangandan soʻng, qaysi biri eng kichik miqdorga ega boʻlsa, shu variant iqtisodiy samarador hisoblanadi.

$T_1, T_2, \dots, T_N$ - har bir variantdagi joriy xarajatlar miqdori yoki mahsulot tannarxi, so'm;

$K_1, K_2, \dots, K_N$ - har bir variantdagi kapital qo'yilma miqdori, so'm;

E_N –sanoat korxonalari uchun belgilangan kapital mablag' samaradorligining me'yoriy koeffitsiyenti, $E_N=0,08$ dan $0,2$ gacha.

Adabiyotlar

1. Алимходжаев С.Р., Хошимова С.Н. Меҳнат иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. -Т.: ТошДТУ, 2002.
2. Гаипова М.Т., Урманова Д.Т. Методические указания к практическим занятиям по дисциплине «Экономика отрасли». - Т.: ТашГТУ, 2007.
3. Галлиев Ж.К. Экономика предприятия. Учебник.-М:МГТУ, 2001.
4. Махмудов Х. «Корхона иқтисодиёти». Ўқув қўлланма.— Т.:ТДИУ, 2004.
5. Ортиқов А. “Саноат иқтисодиёти”. Дарслик. Т.:ТДИУ. 2004.
6. Ортиқов А.А., Юлдашева Ш.М. “Саноат корхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этиш”. Ўқув қўлланма. -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004.
7. Internet saytlari: www.lex.uz; www.elec.ru; www.harvard.edu; www.solliq.uz; www.audit-center.ru; <http://www.statistics.uz>; www.businesspravo.ru.

Razryad asosida tarif koeffitsiyentlari

**Eng kam ish haqi 2015 y.
1 sentyabrdan 130240 so'm**

Razryad tartibi	Razryadi	Razryad asosida ta'rif koeffitsiyentlari
1	1	1
2	2	2,476
3	3	2,725
4	4	2,998
5	5	3,297
6	6	3,612
7	7	3,941
8	8	4,284
9	9	4,64
10	10	4,997
11	11	5,362
12	12	5,733
13	13	6,115
14	14	6,503
15	15	6,893
16	16	7,292
17	17	7,697
18	18	8,106
19	19	8,522
20	20	8,943
21	21	9,371
22	22	9,804

**Muhandis-texnik va ishchi-xodimlarning taxminiy
razryadlari**

№	Muhandis-texnik va ishchi-xodimlar lavozimlarining nomi	Ya.T.S bo'yicha razryadi
1	Ishchilar	II
2	Elektromexanik yordamchisi	III
3	Avtosamosval haydovchi yordamchi	III
4	Mexanik yordamchisi	III
5	Elektrslesar yordamchisi	III
6	Elektrik	IV
7	Elektroslesar	V
11	Elektr payvandchisi	V
12	Elektromexanik	V
14	Yuklovchi (mashina PPN-1S 6)	VI
15	Avtosamosval haydovchisi	VI
16	Avtoslesar	VI
18	Mexanik	VI
19	Avtomatlashtirish bo'yicha mutaxassis	VII
20	Master	X
21	Smena boshlig'i	XII
23	Bosh mexanik	XIV
24	Bosh energetik	XV
25	Bosh muhandis	XV

Mundarija

	KIRISH	3
1.	Investitsiya va yillik amortizasiya ajratmalari miqdorlarini hisoblash	6
2.	Kadrlar sonini hisobi	9
3.	Yillik ish haqi fondini hisoblash	11
4.	Materiallar sarfini hisoblash	15
5.	Yoqilg'i va moylash sarfini hisoblash	15
6.	Jarayonlarni bajarishda mashina va mexnizmlar sarflaydigan elektr energiya miqdorini aniqlash	17
7.	Siqilgan havo sarfini hisoblash	19
8.	Bitiruv malakaviy ishning mavzusi boyicha bajarilgan texnik yechimning sarf-xarajatlar umumiy hisobini va 1 t mahsulot tannarxining smetasini tuzish	21
9.	Sanoat korxonasida ishlab chiqarish fondlarining samaradorligini va mehnat unumdorligini hisobi	23
10.	Variantlarning o'zaro qiyosiy samaradorligini aniqlash	24
	Adabiyotlar	26
	1-ilova	27
	2-ilova	28

Muharrir
Musahhih

Sidikova K.A.
Adilxodjayeva Sh.